

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**Ped.03.27.09.2024 Fil/Ped 05.09 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**USMANOVA KOMOLA XIKMATULLAYEVNA**

**INGLIZ TILI O‘QITISH JARAYONIDA**  
**MEDIATEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Usmanova Komola Xikmatullayevna**

Ingliz tili o‘qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish metodikasini  
takomillashtirish.....3

**Усманова Комола Хикматуллаевна**

Совершенствование методики использования медиатехнологий в процессе  
обучения английскому языку .....25

**Usmanova Komola Khikmatullaevna**

Improving the methodology of using media technologies in the process of teaching  
English.....49

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**Ped.03.27.09.2024 Fil/Ped 05.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**USMANOVA KOMOLA XIKMATULLAYEVNA**

**INGLIZ TILI O‘QITISH JARAYONIDA**  
**MEDIATEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.2.Phd/Ped5204 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Farg'ona davlat universiteti web-sahifasida (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:**

**Ilxamova Iroda Nuritdinovna**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Urazova Marina Batirovna**

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Iminaxunova Iroda Xuseinovna**

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Phd.03.27.09.2024 Fil/Ped 05.09 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "21" 08 kuni soat 8:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel: (993873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-91; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (557 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151 Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel: (993873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "9" 08 da tarqatildi.

(2025-yil "9" 08 dagi 3 -raqamli reestr bayonnomasi).



**M.R.Kadirova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.Y.Mamajonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**D.A.Ganiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon hamjamiy axborot oqimlarining ko'payishi bilan ishlab chiqarishning turli sohalari mutaxassislarini mediasavodxonlikka bo'lgan ehtiyoji oshib bormoqda. So'nggi yillarda ingliz va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'rgatish, o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. BMTning "Ming yillik deklaratsiyasi" (2000-y.), "Tillar uchun Yevropa standarti: o'qish, o'qitish va baholash" (2005-y.), "Ta'lim – 2030: umr bo'yi umumiy inklyuziv va adolatli sifatli ta'lim berish va o'qitishni ta'minlash" Inchxon (2015-y.), shuningdek, Bolonya deklaratsiyalari g'oyalari, bo'lajak chet tillari mutaxassislarini tayyorlashda ustuvor bo'lgan CEFR (Common European Framework of Reference for Language) malaka talablari etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. BMTning "Ming yillik deklaratsiyasi" doirasida 2014-2021-yillar uchun mo'ljallangan "O'rtacha tezlik strategiyasi" ("Medium-Term Strategy for 2014-2021")da esa mazkur davrda o'qitish jarayonini faollashtirish, mediata'limning o'ziga xos xususiyatlari, mediasavodxonlikni shakllantirish vositalari va usullarini o'rganish ta'lim jarayonida mediateknologiyalar va mediamatnlardan foydalanish o'ta muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Dunyoda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot-ishlarida etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish; shaxslararo muloqotda ularning imkoniyatlaridan foydalanish, muloqot vositasida ijtimoiy subyektlarda tolerantlikni rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Samarali natijalarga erishishga yo'naltirilgan me'yoriy hujjatlar, xususan, "Rossiyada kasbiy ta'lim: o'tmish an'analari va istiqbollari", "Erasmus+" (2014-y.) dasturlari, Qozog'iston Respublikasining "Bolashak" xalqaro dasturi, shuningdek, Bolonya shartnomasi mamlakatlarining ta'lim forumi negizida turli ta'lim muassasalari o'rtasida bilimlar va talabalarni almashish, standartlarni takomillashtirish, ta'lim maqsadlariga erishish bilan bog'liq yutuqlar sohasidagi taraqqiyot monitoringini amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda chet tillarni o'qitish tizimi sifatini xalqaro standartlarga muvofiq tarzda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani mazkur tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilab beradi. Oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash"ning xalqaro me'yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference) tadbiiq etilayotganligi ham o'z navbatida talabalarda faol muloqot muhitini yaratish asosida ularning muloqot madaniyatini rivojlantirishga erishishga imkon beradigan pedagogik shart-sharoitni hosil qiladi. Shunga ko'ra, OTMga kirishda CEFR va IELTS (International English Language Testing System) mavjudligini inobatga olish joriy etildi. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish"<sup>1</sup> ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ushbu vazifani hal etish doirasida

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi, 2017-yil 15-avgustdagi F-5024-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-3307879>.

ingliz ta'limi sifatini yaxshilash, o'qitish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, mediata'lim va mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni chet tillarni o'qitishning xususiyatlarini inobatga olgan holda o'rganish hamda milliy kontekstda o'rganilayotgan tilda mediasavodxonlikka o'rgatish metodik tizimining hozirgi holatini tahlil qilish nofilologik OTM talabalrining mediasavodxonlik darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-sonli qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davrida ta'lim va fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6108-son Farmoni, 2021-yil 19-maydagi "Respublikada chet tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PP-5117-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 34-son Qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu tadqiqot ularning amaliy ijrosini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy–ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy tillarni o'rganish, ingliz tilida samarali o'qitishning o'ziga xos jihatlari, psixologik mohiyati, ingliz tiliga asoslangan muloqot jarayonini tashkil etish omillari, yo'llari, metodik ta'minoti, xorijiy tillarni o'rganishning zamonaviy tamoyillari N.Galskova, N.Gez, Ye.Kashina, I.Kolesnikova, O.Dolgina, R.Komparelli, Ye.Leonovich, A.Malafeyev, R.Milbrud, N.Naydenova, R.Nemov, M.Palagutina, N.Paradeyeva, Ye.Pikeyeva, N.Plotnikova, T.Popova, A.Solonenko, S.Stupina, N.Trubaneva kabilar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Shaxsning muloqot madaniyati, o'quvchi va talabalarda muloqot kompetentligi va madaniyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuv mohiyati, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar vositasida xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish masalalari M.Andryunina, Ye.Batrakova, L.Valeeva, Ye.Voronova, N.Dvulichanskaya, M.Yevstigneyev, Ya.Yegorova, A.Maksayev, A.Maxmutova, Yu.Mitrukova, A.Morozova, M.Petrenko, A.Sirazeeva, P.Sisoyev, T.Tarxanova, G.Chopsiyevalar tomonidan o'rganilgan.

Ingliz tilini intensiv o'rganish, shu maqsadga xizmat qiladigan veb-kvest texnologiyasi, ingliz tiliga asoslangan og'zaki va yozma muloqotning ustuvor tamoyillari M.Berlis, G.Suit, F.Guen, F.Klosse, G.Lozanov, G.Palmer, M.Valter, M.Uest kabi pedagog-olimlarning ilmiy izlanishlari uchun asosiy yo'nalish sifatida tanlangan. Media ta'limi va axborot madaniyati xususiyatlari R.Aufderheide, P.Greenway, A.Silverblatt, W.Potter, R.Hobbs, T.Le-Van, N.Rijix, A.Fedorov, V.Kolesnichenko asarlarida; mediasavodxonlikning tarkibiy va mazmun

xususiyatlari hamda media kompetensiyasi va uni shakllantirish usullari P. Gilster, R. Kubey, N.Xlizova, Ye.Muryukina, Ye.Stolbnikova, N.Chicherina, D.Zalagayev, P.Kotlyar va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Respublika olimlari N.Alauddinova, M.Aminov, J.Jalolov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov, X.Sharafutdinova, A.Nurmanov, N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo‘ldoshevlarning ilmiy-metodik ishlarida chet tillarni samarali o‘qitish, ingliz tili fani o‘qituvchilarining kasbiy malaka va mahoratlarini oshirish, ingliz tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish, shaxslararo muloqot, uni tashkil etish, bu jarayonda shaxs muloqot madaniyatining namoyon bo‘lishi, muloqot jarayonida rioya qilinishi zarur bo‘lgan qoidalar kabi muammolar tadqiq etilgan. Mamlakatimizda pedagogika fanida mediata’lim, talabalar va bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida media madaniyatini rivojlantirish, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullari, shuningdek media kompetensiyasini shakllantirish masalalarini B.Qarshiyev, Sh.Taylaqova, N.Rustamova, S.Kulmamatov, S.Babadjanov, I.Rasulovlar tadqiq etishgan.

So‘nggi yillardagi ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsion o‘qitish uslublariga integratsiya jarayoni, til o‘qitish metodikasida mediatexnologiyalar, multimedia, interaktiv platformalar, mobil ilovalar, videodarslar va boshqa raqamli vositalar D.To‘raqulova, B.Karimov, O.Axmedova, M.Normuradova, M.Ibragimova, N.Sharipova, D.Jo‘raqulova va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Shunga qaramay, xorijiy tillarni o‘rganish, ingliz tilida samarali o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari, psixologik mohiyati, ingliz tiliga asoslangan muloqot jarayonini tashkil etish omillari asoslab berilgan bo‘lsada, etnik madaniy rivojlanish kontekstida virtual muhit va ijtimoiy tarmoqlar mediavositlardan mediamadaniyatni takomillashtirish vositasi sifatida foydalanishga doir maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan muvofiq “Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora tadbirlar dasturi” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz tili o‘qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

chet tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda zamonaviy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda mediata’limning xorijiy tajribasini o‘rganish va mediaresurslar tarkibiy qismlarini modifikatsiya qilish;

nofilologik OTMlari boshlang‘ich kurs talabalariga ingliz tili o‘qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish metodik tizimining hozirgi holatini tahlil qilish, darslarida mediaresurslar orqali mediamadaniyatlikni shakllantirishning uslubiy asoslari va samarali vositalarini aniqlash;

OTMlarining talabalariga ingliz tili o‘qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanishning integrativ modelini takomillashtirish va uni ingliz tili darslarida samarali amalga oshirishning didaktik vositalarini ishlab chiqish;

yaratilgan didaktik vositalarni nofilologik OTMLarida ingliz tilini o‘qitish amaliyotida sinab ko‘rish va samaradorligini baholash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida oliy ta‘lim muassasalari iqtisodiyot va turizm mutaxassisligi talabalariga ingliz tili o‘qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish jarayoni belgilangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat chet tillar instituti, Qo‘qon davlat universiteti va Jizzax davlat pedagogika universitetlarining 599 nafar talabalarini ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmeti** oliy ta‘lim muassasalari talabalariga ingliz tili o‘qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, shakli, metod, vosita va texnologiyalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda muammoga oid adabiyotlarni o‘rganish, fanni o‘qitish jarayonini kuzatish, qiyosiy tahlil etish, online platforma orqali nazariy va amaliy bilimlarni o‘rganish, testlar va topshiriqlarni bajarish, suhbat, anketa va tajriba-sinov ma‘lumotlarini qayta ishlashda matematika-statistika usullari, natijalarni grafik tasvirlash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

chet tili darslarida mediatexnologiyalardan foydalanishda multimodal yondashuv asosida talabalarning ko‘p qirrali o‘zaro ta‘sirini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “media (reading) – media matnlar (writing) – ma‘lumotni ovozi qabul qilish (listening) – muloqot (speaking) jarayonida mediamalumotlardan foydalanish” tuzilmasi asosida to‘rt komponentli innovatsion model takomillashtirilgan;

mediamatnlarning janr xususiyatlari va lingvistik qiyinchiliklarni hisobga olgan holda mediamadaniyatlikni shakllantirishning uslubiy asoslari va samarali vositalarini aniqlashtirish jarayonida multimediamiy resurslardan foydalanish orqali talabalarning axborotni idrok qilish qobiliyatlarini kengaytiruvchi ingliz tili darslarida mediamadaniyatni shakllantirish uchun mediavositalar takomillashtirilgan;

talabalarning chet tilida kommunikativ malakalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi yondashuvlar (gymifikatsiya, edu-apps) asosida zamonaviy axborot makoni imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi mediatexnologiyalarni rivojlantirish kontekstida zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda ESP (English for Specific Purposes uchun ingliz tili) o‘qitish metodikasi ingliz tili o‘qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanishning integrativ modelini optimallashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kontekstual muloqot ko‘nikmalarini interaktiv va raqamli platformalarda shakllantirishga imkon beruvchi ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish negizida “mobil-elektron muloqot” tamoyili asosida mediakeys bazasi yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

nofilologik OTMLar talabalariga ingliz tilini o‘qitish mazmuni mediamadaniyatni shakllantirish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida takomillashtirilgan;

ingliz tilini o‘qitish vositalari mediatexnologiyalar va maxsus yaratilgan axborot, operatsion va motivatsion topshiriqlar tizimi orqali takomillashtirilgan;

o'quv materiallari ishlab chiqilgan mualliflik modeliga muvofiq shakllantirilgan va tajriba mashg'ulotlari davomida sinovdan o'tkazilgan "English with Media Technology" o'quv moduli shaklida taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-metodik anjuman materiallari to'plami, Oliy Attestasiya komissiyasi ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr qilingan o'quv qo'llanma hamda o'quv-uslubiy qo'llanma, respondentlar bilan o'tkazilgan savol-javob, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiqu, tajriba-sinov ishlari tahlili va samaradorligi matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi yuzasidan berilgan xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tili o'qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish jarayoni mazmunining yoritilganligi, samarali omil, vositalarining aniqlanganligi, metodikasi va texnologiyalarining takomillashtirilganligi, ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi hamda ularning tajriba-sinovdan o'tkazilganligi; talabalarining ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatiga egalik darajasini baholash mezonlarining aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlari", "Chet tillar bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar" o'quv fanlari mazmunan boyitilgan; ilmiy-metodik ishlanmalar tayyorlangan; OTMning "Ingliz tili", fanlari o'qituvchilari tomonidan qo'llaniladigan didaktik ta'minot amaliy-metodik ishlanmalar va yangi texnologiyalar bilan boyitilgan; sinov ishlariga jalb etilgan tajriba guruhi talabalarining ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatiga egalik darajasi oshganligi; ingliz tili ta'limining sifati yaxshilanib, samaradorligi ta'minlanganligi va talabalar bilim darajasini aniqlashda, onlayn testlar, didaktik materiallar bilan ta'minlash, metodik yordam ko'rsatish maqsadida Ingliz tili o'qitish jarayonida qo'llaniluvchi interfaol mediaquestlar bazasi (2023-yil 05.11. № DGU 29173) yaratilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tili o'qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy natijalar:

chet tili darslarida mediatexnologiyalardan foydalanishda multimodal yondashuv asosida talabalarining ko'p qirrali o'zaro ta'sirini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "media (reading) – media matnlar (writing) – ma'lumotni ovozli qabul qilish (listening) – muloqot (speaking) jarayonida mediamalumotlardan foydalanish" tuzilmasi asosida to'rt komponentli innovatsion model takomillashtirilga oid takliflardan Jizzax politexnik institutida bajarilgan OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 30-sentabrdagi 11-05-5557/07-dalolatnomasi). Natijada

ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tilini o'qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish metodik tizimining hozirgi holatini tahlil qilishga sharoit yaratilgan;

mediamatnlarning janr xususiyatlari va lingvistik qiyinchiliklarni hisobga olgan holda mediamadaniyatlikni shakllantirishning uslubiy asoslari va samarali vositalarini aniqlashtirish jarayonida multimedaviy resurslardan foydalanish orqali talabalarining axborotni idrok qilish qobiliyatlarini kengaytiruvchi ingliz tili darslarida mediamadaniyatni shakllantirish uchun mediavositallarni takomillashtirishga oid takliflardan Jizzax politexnika institutida bajarilgan OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 30-sentabrdagi 11-05-5557/07-dalolatnomasi). Natijada talabalarining darslarida mediaresurslar orqali mediamadaniyatlikni shakllantirish samaradorligi oshgan;

talabalarining chet tilida kommunikativ malakalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi yondashuvlar (gymifikatsiya, edu-apps) asosida zamonaviy axborot makoni imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi mediatexnologiyalarni rivojlantirish kontekstida zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda ESP (English for Specific Purposes uchun ingliz tili) o'qitish metodikasi ingliz tili o'qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanishning integrativ modelini optimallashtirishga oid tavsiyalardan bajarilgan "AIF 1/4-Kasb-hunarga yo'naltirilgan markaz va elektronika bo'yicha qo'shma o'quv laboratoriya yaratish" mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 30-sentabrdagi 11-05-5557/07-dalolatnomasi). Natijada axborot makonini kengaytirish va mediatexnologiyalarni rivojlantirish zamonaviy voqeliklarga mos ravishda xorijiy tillarni maxsus maqsadlar uchun o'qitish metodikasi (ESP) takomillashtirilgani ishning amaliy natijadorligini oshirgan;

talabalarining kontekstual muloqot ko'nikmalarini interaktiv va raqamli platformalarda shakllantirishga imkon beruvchi ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish negizida "mobil-elektron muloqot" tamoyili asosida mediakeysar bazasini yaratish asosida takomillashtirishga oid takliflar Jizzax politexnika institutida bajarilgan OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 30-sentabrdagi 11-05-5557/07-dalolatnomasi). Natijada yaratilgan didaktik vositalarni nofilologik OTMlarida ingliz tilini o'qitish amaliyotida sinab ko'rish va samaradorligini baholashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Natijalarning e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishda tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat bo'lib, asosiy matn 144 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarga ingliz tili o'qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'quv jarayonini mediatexnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslari, ta'lim jarayonini mediatexnologiyalar asosida tashkil etishda jahon tajribalarining metodik jihatlari shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini mediata'lim asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari kabi masalalar yoritilgan.

Axborot xuruji va raqamli texnologiyalar davrida mediatexnologiyalar ingliz tilini o'rganuvchilarni tarbiyalashda tobora muhim rol o'ynamoqda. Ular interaktiv va samarali ta'lim olish imkoniyatini yaratib, talabalarga turli video va audio materiallar, onlayn kurslar, virtual sinflar, o'yinlar va boshqa zamonaviy vositalar orqali tilni o'zlashtirish imkonini beradi. Bunday o'rganish nafaqat qiziqarli va shiddatli, balki samaralidir, chunki u tilni vizual va eshitish orqali idrok etishni rag'batlantiradi, shuningdek, mustaqillik, tanqidiy fikrlash va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantiradi. Mediatexnologiyalar real til muhitini yaratishga imkon beradi, shuningdek, madaniyatlararo aloqa almashinuvga hissa qo'shadi va talabalarining ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar va madaniyatlar haqidagi bilimlarini boyitadi.

Mediatexnologiyalar turli darajadagi tillarni o'rgatish uchun mos keladi, ya'ni boshlang'ichdan tortib to yuqori darajali talabalarigacha. Ular talabalarga nafaqat o'qish, yozish, gapirish va tinglash ko'nikmalarini oshirishga, balki ularning til va madaniy bilimlarini boyitishlariga ham yordam beradi. Demak, mediatexnologiyalar zamonaviy ta'limning ajralmas va zarur tarkibiy qismi bo'lib, ingliz tilini o'qitish va o'rganish sifatini oshirishga yordam beradi. Ular talabalar uchun yangi ufqlar va imkoniyatlarni ochib, ularga til o'rganishda yaxshi natijalarga erishish va globallashtirilgan dunyoda muvaffaqiyatli o'zaro hamkorlik qilish imkonini beradi. Mediatexnologiyalar — bu turli xil media resurslaridan foydalangan holda ma'lumotlarni uzatish vositalari va usullari. Bunday resurslarga kompyuterlar, Internet, mobil qurilmalar, audio va video yozuvlarni misol qilib keltirish mumkin. Ularning ta'limdagi roli talabalarining samarali o'rganishi uchun interfaol va rag'batlantiruvchi muhitni yaratishdan iborat. Mediatexnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari interaktiv dasturlar, onlayn resurslar, multimedia materiallari va til tajribasini almashish uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy talabalar o'quv maqsadlarida maxsus ishlab chiqilgan turli xil mobil ilovalardan foydalangan

holda samarali o'qishlari mumkin. Ushbu innovatsion ilovalar keng ko'lamli ta'lim mazmunini taklif etadi va talabalarga yangi bilim va ko'nikmalarni o'rganishda faol yordam beradi. Mobil ilovalar mavjudligi tufayli talabalar o'zlari uchun qulay bo'lgan istalgan joyda va istalgan vaqtda o'qish imkoniyatiga ega.

V.Glushkova ta'kidlashicha, mediatexnologiyalar vositasida tashkil etilgan o'quv jarayoni nafaqat informatsion, balki qiziqarli bo'ladi, bu materialni chuqur o'rganishni va ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini yaxshilashni ta'minlaydi. Bu talabalarga lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish va kundalik vaziyatlarda ingliz tilidan ishonchli foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'rganishning ushbu qiziqarli va immersiv yondashuvi talabalarga motivatsiyani saqlab qolishga yordam beradi va ularga ingliz tilining turli jihatlarini muhokama qilish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu ularga o'zlarining yutuqlari va yutuqlarini tan olish imkoniyatini beradi, bu faqat o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi. Natijada, ushbu yondashuv tufayli talabalar nafaqat bilim va ko'nikmalarga, balki ingliz tilidan to'liq foydalanish tajribasiga ega bo'lishadi, ingliz tili sohasida qiziqarli va ma'lumotli o'quv jarayoni esa yuqori natijalarga erishish va doimiy o'sishga yordam beradi, deb ta'kidlaydi.

Yu.Bjiskaya esa, o'z ilmiy ishlarida zamonaviy media-texnologiyalardan foydalanish talabalar bilimining ajralmas qismi bo'lib, ularning mustaqilligi, kreativligi va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga egaligini e'tirof etadi. Ushbu texnologiyalar talabalarga turli xil ma'lumotlar manbalarini o'rganish va ulardan amaliy maqsadlarda foydalanish imkonini beradi. Mediatexnologiyalar tufayli talabalar nafaqat tegishli bilimlarga ega bo'lishlari, balki muammolarni mustaqil yechish, mustaqil tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va axborotdan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rganadilar. Bu tadbirlarning barchasi talabalarining kreativ tafakkurini faollashtirishga, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar mustaqil ravishda yangi ma'lumotlarni tadqiq qilish, ishonchliligini baholash va amaliy faoliyatlarida qo'llash qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Media-texnologiyalar, bir tomondan, talabalar o'rtasida kommunikativ kompetentsiyani samarali shakllantirishga yordam beradi, ularning kommunikativ ko'nikmalarini oshirishga va ijtimoiy aloqalar doirasini kengaytirishga imkon beradi. Boshqa tomondan, ular talabalarni onlayn muhitda o'zaro munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ularning turli xil texnologik yangiliklarga va ijtimoiy vaziyatlarga samarali moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Onlayn ta'lim talabalar o'rtasida hamkorlik va o'zaro munosabatlar uchun imkoniyatlar yaratadi, bu ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, turli mediaresurslardan foydalanish talabalarga ingliz tilida so'zlashuvchi muhitga sho'ng'ish, ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish va interaktiv ta'lim loyihalarida ishtirok etish imkonini beradi.

G.Suit tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko'ra, tilni o'rganish o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish kabi asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi, shuningdek, tilning rivojlanish tarixi va etimologiyasini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. G.Suit nazariyasida matn asosida o'rgatishning ahamiyati ta'kidlanadi, bu esa nofilologik yo'nalishdagi talabalarga tilni amaliyotda tezroq va samaraliroq o'zlashtirish imkonini yaratadi. M.Berlis

metodikasi tilni tarjimasiz o'rganishni taklif qiladi. Unga ko'ra, til materiallari tarjima qilinmasdan, bevosita voqealar va harakatlar orqali o'zlashtiriladi. Bu usul talabalarda mustaqil tahlil va taqlid qilish asosida o'rganish imkonini beradi. Berlisning yondashuvi tilni muloqot orqali o'rganishni rag'batlantiradi, bu esa talabalarni real hayotiy vaziyatlarda tilni samarali qo'llashga tayyorlaydi. F. Guen nazariyasiga ko'ra, tilni shaxsiy ehtiyojlar asosida o'rganish eng samarali usullardan biridir. U mavzularni jamiyat, oila, maktab va tabiat singari real hayotga asoslangan holda tasniflaydi. Guenning ta'kidlashicha, darslar asosan og'zaki mashqlar orqali boshlanadi va bu talaffuz va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. G.Palmerning yondashuvi esa tilni muloqotga asoslangan holda o'rgatishga urg'u beradi. U talabalarga passiv lug'at boyligini shakllantirib, keyinchalik bu bilimlarni reproduktiv nutqda qo'llashni tavsiya etadi. Palmer, shuningdek, so'zlarni kontekstda o'rganishni, ya'ni matn va gaplarning bog'lanishini anglash orqali tilni samarali o'zlashtirishni ta'kidlaydi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan olimlarning qarashlari mediatexnologiyalarning til o'qitish jarayonida samarali vosita ekanligini, ularning talabalarni mustaqil, interfaol va qiziqarli o'rganish jarayoniga jalb etishini ko'rsatadi.

Nofilologik yo'nalishdagi talabalarga ingliz tili o'qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanishning hozirgi holatini tadqiq qilish davomida aniqlanganidek, ushbu yondashuv talabalarning kasbiy maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'zlashtirishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot doirasida amaldagi jarayonni tahlil qilib, bugungi kunda mediatexnologiyalar, jumladan, onlayn kurslar, interfaol mashqlar va multimedia resurslari orqali talabalarni ingliz tilini samarali o'rganishga rag'batlantirish imkoniyatlari kengligini aniqlandi. Masalan, iqtisod va texnika yo'nalishidagi talabalarga interfaol mashg'ulotlar orqali kasbiy terminologiyani amaliyotga tadbiiq qilishda mediatexnologiyalar sezilarli darajada samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Talabalar multimedia resurslari, masalan, video va audio materiallardan foydalangan holda texnik terminlarni osonroq tushunish va kasbiy faoliyatda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Shuningdek, onlayn kurslar orqali talabalar o'zlarining individual o'quv tezligida ingliz tilini o'rganishlari va CEFR yoki IELTS kabi xalqaro sertifikatlariga tayyorgarlik ko'rishda chuqur bilim olishlari mumkinligi aniqlangan. Bunday imkoniyatlar talabalarni kelajakda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ingliz tili qo'llashga tayyorlaydi. Ushbu natijalardan kelib chiqib, media-texnologiyalarni keng joriy etish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi degan xulosaga kelgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarga ingliz tili o'qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish metodikasining mohiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitish jarayonini mediatexnologiyalar asosida tashkil etish mexanizmi, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish metodlari va virtual va aralash ta'lim muhitida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish tizimi bayon etilgan.

Nofilologik yo'nalishdagi talabalarga ingliz tilini o'qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish maqsadida oldingi metodlar tahlil qilindi. Bu metodlar orasida multimedia resurslaridan, virtual

darslardan, onlayn kurslardan va interfaol mashqlardan foydalanish asosiy rol o'ynaydi. Masalan, Miller (2018) virtual sinflarda interfaol darslar talabalar ishtirokini oshirishi va real vaqt rejimida muloqotni rivojlantirishi mumkinligini ta'kidlagan. Shuningdek, Johnson va Patel (2020) tadqiqotlariga ko'ra, audio va video materiallardan foydalanish tinglab tushunish va talaffuzni rivojlantirishga katta yordam beradi.

Miller va Johnson kabi olimlarning ishlariga tayanib, mediatexnologiyalarni nofilologik yo'nalishdagi talabalarga moslashtirish zarurligini belgiladi. O'qituvchilarni bu texnologiyalardan foydalanish bo'yicha malaka oshirishlari o'qitish sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, amaldagi metodik tahlillar onlayn kurslar orqali talabalar o'z tezligida o'rganishlari va kasbiy mavzularni chuqurroq o'zlashtirishlari mumkinligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, mediatexnologiyalar yordamida talabalar CEFR va IELTS kabi xalqaro standartlarga tayyorlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar:

Interaktiv onlayn darslar. Turli fan va kurslarni o'rganish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashda interaktiv onlayn darslardan foydalanish zamonaviy ta'lim bozorida tobora ommalashib, keng tarqalmoqda;

Multimediali taqdimotlar. Yana shunday samarali amaliyotlardan biri — eng yangi texnologiyalar va ijodiy yondashuvlardan foydalangan holda multimedia taqdimotlarini ishlab chiqish;

Ta'lim dasturlari (Edu-apps). Bu bizning zamonaviy hayotimizning muhim va ajralmas qismidir. Texnologiyaning rivojlanishi va Internetga kirish bilan ta'lim ancha qulay va qulay bo'ldi.

Geymifikatsiya. O'yinlar talabalarning motivatsiyasini samarali oshirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida ularning materialni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ingliz tili ona tilisi bo'lgan so'zlashuvchilar bilan videokonferensiya va onlayn muloqot. Bu nafaqat muloqot va amaliy ko'nikmalarni kengaytirishga, balki tili o'rganilayotgan xalq madaniyati va an'analarini chuqurroq tushunishga ham yordam beradi.

Talabalarning ingliz tilida muloqot madaniyatini rivojlantirishda media texnologiyalardan foydalanish turli uslub va vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ibrat Academy: nofilologik yo'nalishlarda ingliz tilini o'qitishda yondashuv va afzalliklar: Ibrat Academy orqali iqtisod va texnika yo'nalishidagi talabalarga nafaqat til o'rgatish, balki ularni xalqaro standartlarga muvofiq ravishda baholash imkoniyati ham taqdim etiladi. Platformaning CEFR va IELTS tayyorlov kurslari talabalarga o'z bilimlarini amaliy mashg'ulotlar va testlar orqali baholashda qo'llaniladi(1-jadval).

#### *1. CEFR va IELTS standartlariga tayyorlovda Ibrat Academyning afzalliklari*

CEFR (Common European Framework of Reference) va IELTS (International English Language Testing System) xalqaro sertifikatli tizimlaridir. Ibrat Academy, ayniqsa, iqtisod yo'nalishidagi talabalarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- *Grammatika va talaffuzni takomillashtirish.* Ingliz tilini o'rganish jarayonida aniq grammatik bilimlar va to'g'ri talaffuz zarur. Ibrat Academy'da turli darajadagi (A1 dan C2 gacha bo'lgan) grammatik qoidalar va talaffuz mashqlari mavjud bo'lib, bu CEFR talablariga muvofiq bilimlarni rivojlantirishda qo'l keladi.

• *Lug‘at boyligini oshirish.* Platforma iqtisod va texnika sohalariga mos maxsus lug‘at boyligini shakllantirishga yordam beradi. Misol uchun, iqtisodiy atamalar va moliyaviy tushunchalarni tushunish uchun talabalar maxsus materiallar bilan tanishadilar.

• *Listening (Eshitish) va Speaking (So‘zlashish) ko‘nikmalarini mustahkamlash.* IELTS va CEFR darajalariga erishish uchun talabalar eshitish va so‘zlashish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib boradilar. Ibrat Academy interaktiv tarzda eshitish mashqlarini taklif etadi, bu esa turli sohadagi matnlarni tinglab, ulardan olingan ma‘lumotlarni tushunishga yordam beradi.

## 1-jadval

### Iqtisodiy yo‘nalish talabalarining ingliz tili darslarida muloqot madaniyatini rivojlantirishda Ibrat Academyning afzalliklari

Foydalanish sohasi	Iqtisodiy yo‘nalish darslari uchun tavsiyalar
<b>CEFR va IELTS bo‘yicha tayyorlov</b>	CEFR darajalariga (B1-B2 yoki C1-C2) erishish uchun talabalar iqtisodiy atamalar va tahliliy yozuvlar bilan ishlaydigan interaktiv mashqlardan foydalanadi.
<b>O‘qish va Tushunish (Reading)</b>	Iqtisodiyotga oid maqolalar va statistik tahlillarni o‘qib tushunish uchun maxsus mashqlar orqali lug‘at boyligini oshirish.
<b>So‘zlashish (Speaking)</b>	Moliyaviy masalalarni tahlil qilish, statistik natijalarni baholash va tijorat hisobotlarini muhokama qilish uchun sinovdan o‘tish mashqlarini taklif etadi.
<b>Eshitish (Listening)</b>	Xalqaro moliya bozori, iqtisodiy yangiliklar va ekspertlar tahlillarini tinglab, savollarga javob berish orqali tushunish qobiliyatini oshiradi.
<b>Yozish (Writing)</b>	Iqtisodiy maqolalar yozish va statistik hisobotlarni sharhlash, raqamli ma‘lumotlar asosida insho yozish ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun individual topshiriqlar beradi.

2. *Iqtisodiy yo‘nalishda Ibrat Academy platformasini qo‘llashning samaradorligi:* Iqtisodiy yo‘nalish talabalarining ingliz tili darslarida muloqot madaniyatini rivojlantirishda Ibrat Academy‘ning bir qator afzalliklari mavjud. Ayniqsa, iqtisodiyot darslarida CEFR va IELTS tayyorlov mashg‘ulotlari qatorida maxsus iqtisodiy matnlarni tahlil qilishda foydalanish mumkin.

3. *Mediatexnologiyalar yordamida shaxsiy muloqot madaniyatini rivojlantirish.*

Ibrat Academy iqtisod va texnika yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Platformada mavjud videomateriallar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali talabalarining kundalik hayot va ish jarayonlarida ingliz tilidan foydalanish imkoniyatlari oshadi.

• *Iqtisodiy atamalar va moliyaviy tushunchalar.* Ibrat Academy platformasi iqtisod yo‘nalishidagi talabalar uchun so‘zlashuv va yozma nutqda foydalaniladigan iqtisodiy atamalarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

• *So‘zlashuv (Speaking) ko‘nikmalarini rivojlantirish.* Saytda mavjud bo‘lgan “Speaking” mashqlari orqali talabalar moliyaviy tahlillar yoki tijorat masalalarini ingliz tilida muhokama qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

• *O‘z-o‘zini nazorat qilish va mustaqil ishlash.* Ibrat Academy platformasi nofilologik yo‘nalishdagi talabalarning individual bilimlarini tekshirish va o‘z-o‘zini baholash uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Shuningdek, IELTS va CEFR kabi xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga tayyorlanish uchun talabalar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda sinab ko‘rishlari mumkin.

4. *Platformaning maxsus afzalliklari va qulayliklari.* Ibrat Academy iqtisod va texnika yo‘nalishlari talabalariga mos ravishda mo‘ljallangan bo‘lib, quyidagi yutuqli jihatlarga ega:

• *O‘zbek tilida o‘quv materiallari.* Platforma o‘zbek tilida taqdim etilgani sababli, talabalarga murakkab til nazariyalari va grammatikani o‘z ona tilida tushuntirish imkoniyati mavjud.

• *Ingliz tilidagi mashg‘ulotlarning moslashuvchanligi.* CEFR va IELTS tayyorlov kurslari talabalar uchun shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan, shu jumladan iqtisod va texnika fanlariga asoslangan mavzular bilan boyitilgan.

• *Ingliz tilidagi kundalik va kasbiy so‘zlashuvlar.* Ingliz tilida so‘zlashuvchi jamiyatda ishtirok etish uchun kerakli bo‘lgan muloqot madaniyatini shakllantirishda yordam beradi.

5. *Platformada yaratilgan mediatexnologiyalar va interfaol yondashuvlar.* Ibrat Academy‘da zamonaviy mediatexnologiyalar, jumladan, videodarslar, interfaol mashqlar va talaffuzni rivojlantirish vositalari mavjud. Bu platforma orqali talabalar o‘z til o‘rganish jarayonlarini interaktiv tarzda amalga oshirib, o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar(2-jadval).

## 2-jadval


### Ibrat Academy zamonaviy mediatexnologiyalar bilan interaktiv mashg‘ulotlar olib borish ilovasi sifatida

Mediatexnologiya	Foydasi
<b>Videodarslar</b>	Ingliz tilidagi matnlarni to‘g‘ri tushunish va talaffuzni mustahkamlashda yordam beradi.
<b>Interaktiv mashqlar</b>	Maxsus iqtisodiy atamalarni o‘zlashtirish uchun shaxsiy tayyorgarlik imkoniyatini yaratadi.
<b>Grammatik testlar</b>	Talabalar grammatik bilimlarini test orqali baholab, kamchiliklarini aniqlay oladilar.
<b>Listening va Speaking</b>	Xalqaro iqtisodiy mavzularni tushunish va iqtisodiy savollarga aniq javob bera olish imkoniyatini beradi.
<b>Yozish va lug‘atni boyitish</b>	Raqamli iqtisodiyot, xalqaro moliyaviy hisobotlar kabi iqtisodiy atamalar bilan bog‘liq yozish mashqlari orqali yozma nutqni rivojlantiradi.

Demak, Ibrat Academy, o‘zbek tilida ingliz tilini o‘rgatishga ixtisoslashgan platforma sifatida, nofilologik yo‘nalishdagi, xususan iqtisod va texnika sohalarida tahsil olayotgan talabalarning ingliz tilida samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Platformada joylashgan interfaol mashqlar, CEFR va IELTS darajasiga tayyorlov mashg‘ulotlari, shuningdek, iqtisodiy atamalar va kasbiy so‘zlashuvlarga yo‘naltirilgan maxsus

dashlar talabalarga real hayotda zarur bo‘lgan til ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishini olib borishda asosiy e‘tibor media texnologiyalardan



### **1-rasm. Media texnologiyalardan foydalanish asosida talabalarning ingliz tilida muloqot madaniyatini samarali rivojlantirish imkonini beruvchi omillar**

foydalanish asosida talabalarning ingliz tilida muloqot madaniyatini samarali rivojlantirish imkonini beruvchi omillarni aniqlashga qaratildi, ya‘ni:

1. Yo‘nalishiga ko‘ra: ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar.
2. Mazmuniga ko‘ra: ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy, psixologik, pedagogik, huquqiy va boshqa omillar.
3. Xususiyatiga ko‘ra: umumiy va xususiy omillar.
4. Individuallik va jamoaviylikka ko‘ra: Shaxsiy va guruhiy omillar.

Ta‘limda media texnologiyalardan foydalanishning didaktik ta‘minoti uchun o‘rganilgan metodlar quyidagilar bilan xulosa qilingan:

1. Onlayn darslar va vebinarlar talabalar uchun interfaol muhitda muloqot qilish imkonini beradi, shu bilan birga dars vaqtini va joyni moslashtirish imkoniyati bilan mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi.

2. Flipped classroom (To‘nkarilgan sinf) va loyiha metodi talabalarning o‘z-o‘zini o‘rgatish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Talabalar oldindan berilgan materiallar orqali o‘z-o‘zini tayyorlaydi va sinf vaqtida faqatgina o‘rgangan ma‘lumotlar asosida amaliy mashqlar bajaradi.

3. Mediatexnologiyalardan foydalanish orqali ta‘lim jarayonini qiziqarli qilish uchun interfaol metodlardan keng foydalanish zarur, bunda talabalar o‘zaro muhokama, kvestlar va simulyatsiyalar orqali bilimlarni mustahkamlaydilar.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali talabalar o‘z bilimlarini real vaqtda qo‘llashlari, muloqot qilish va so‘nggi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lishlari mumkin, bu esa tilni amalda tatbiq qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi.

Metodik tahlil media texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligini tasdiqlaydi, bu esa talabalarning ingliz tilidagi bilim va muloqot ko‘nikmalarini oshirish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda ta‘lim o‘nlab shakllarda tashkil etiladi. Buni bir jarayon doirasida yaxlit tasavvur hosil qilish maqsadida, tadqiqot doirasida model ishlab chiqildi.

<b>Maqsad: talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayonida media texnologiyalardan foydalanish</b>					
<b>Vazifalar:</b>					
<b>O'qituvchilar</b>		<b>O'quvchilar</b>			
mediatexnologiyalar asosida talabada ingliz tilida muloqot madaniyatini shaxs madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish;	bir vaqtning o'zida o'quvchilarning fan metodikasining shartlaridan biri sifatida o'qitish metodlarini o'rganishni birlashtirish;	topshiriqni bajarish jarayonida metakognitiv faollikni rivojlantirish asosida mediatexnologiya elementlarini va mavzu bo'yicha sub'ektiv uslubiy bilimlarni shakllantirish;	Grammatik, lingvistik vazifalarni yechish;		
<b>Ta'lim shakli</b>					
Onlayn	Oflayn	Gibrid	Vebinar	Masofaviy kurslar	
<b>Ta'lim metodlari</b>					
Flipped classroom (To'ng'arilgan sinf)	Loyiha metodi	Geymifikatsiya	Aralash ta'lim (Blended learning).		
<b>Texnologiyalar</b>					
Virtual sinflar. Zoom, Microsoft Teams, Google Meet	LMS (O'quv boshqaruvi tizimlari). Moodle, Canvas, Blackboard	VR va AR. Virtual va kengaytirilgan reallik vositalari	Adaptiv o'quv texnologiyalari	Elektron kitoblar va kitobxonlar jamiyatlari. Kindle, iBooks	
<b>Ta'lim vositalari</b>					
O'quv vositalari: doska, markerlar, plakatlar, rangli qalam va flomasterlar, qaychi, rangli qog'oz va h.k.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Video va audio. YouTube, TED Talks, podkastlar, va audiokitoblar.</li> <li>2. Ijtimoiy tarmoqlar. Facebook, Instagram, Twitter, va LinkedIn</li> <li>3. Onlayn platformalar. Coursera, edX, Khan Academy kabi onlayn o'quv platformalari</li> <li>4. Mobil ilovalar. Duolingo, Memrise, Babbel kabi til o'rganishga mo'ljallangan ilovalar.</li> <li>5. Interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar. Ingliz tilini o'rganishga mo'ljallangan o'yinlar va simulyatsiyalar</li> </ol>				
<b>Baholash mezonlari va darajalari</b>					
<i>bilish</i>	<i>Tushunish</i>	<i>qo'llash</i>	<i>analiz</i>	<i>sintez</i>	<i>baholash</i>
O'rta		Yaxshi		A'lo	
Ingliz tiliga oid asosiy tushunchalarni bilish; Grammatik, lingvistik vazifani bilish va tushunish; Sodda misollar keltira olish.		Ingliz tiliga oid asosiy tushunchalarni amalda qo'llay olish; Grammatik, lingvistik vazifani tahlil qila olish; Murakkab misollar keltira olish		Ingliz tiliga oid asosiy tushunchalarni amalda qo'llash yuzasidan yutuq va kamchiliklarni ko'rsata olish; Grammatik, lingvistik vazifani bajarish bo'yicha fikrlarni umumlashtira olish; Variantlarni o'z nuqtai nazaridan baholay olish	
<b>Natija:</b>					
Media texnologiyalardan foydalangan holda talabalarga ingliz tilini o'rganish darajasining takomillashganligi					

**2-rasm. Media texnologiyalardan foydalangan holda talabalarga ingliz tilini o'rganish darajasining takomillashtirish modeli**

